

O'SMIRLIK DAVRIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar Abdumadjidova Dildora Raxmatullayevna

Fayzullayeva Farida Yusufjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha)

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir shaxsining shakllanishida oilaviy munosabatlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maqolada ota-onalar farzandlar o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'smirlik davrida oilaviy nizolarga sabab bo'luvchi omillar va ularni bartaraf etish borasidagi tavsiyalar bayon etilgan. Maqoladan o'smir farzandlar tarbiyasidagi ota-onalar, pedogoglar va psixologlar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, xarakter aksentuatsiyasi, ta'lim, tarbiya, psixologik xususiyat, psixofiziologiya, kommunikativ munosabatlar.

Inson yashar ekan hayoti davomida turli yosh davrlarini bosib o'tadi. Har bir yosh davri o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyish etishi bilan birga boshqa bir yosh davridan farq qiladi. Har bir yosh davri inson organizmida turli xil xususiyatlar namoyon qilishi bilan kechadi. Yosh davrlari orasida o'smirlik davri boshqa bir yosh davrlaridan o'zining shiddat bilan kechishi, o'zgarishlarga boyligi bilan ajralib turadi. O'smirlik davri 11-15 yoshlar oralig'ini o'z ichiga oladi. O'smirlik davri bolalaikdan katta hayotga dastlabki qadam davri ham hisoblanadi. Ayni bu yosh davrida organizmda psixologik, fiziologik, anotomik, psixofiziologik o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida o'smir ruhiy olamida ham o'zgarishlar yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. Shu sababdan ayni shu yosh davrida ota-onalar, pedagoglar va psixologlar bolalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'smirlar ko'pincha serjahl, gapga quloq solmaydigan, injiq, qaysar bo'lib qolishadi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi[1]

O'smirlik davri balog'atga yetish davri ham hisoblanadi. O'smirlarda anotomik va fiziologik o'zgarishlar ham jadallashadi. Ya'ni ularda bo'y o'sishi tezlashadi, vazn to'planish holatlari kuzatilinadi, jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi va o'smirlarda ikkilamchi jinsiy belgilar kuzatilinadi. Bunday holatda ko'pincha o'smirlar o'z tashqi ko'rinishlaridan uyalish holatlari kuzatilinadi va buning oqibatida ular atrofdan o'zlarini chegaralashga harakat qiladilar, yolg'izlikka intiladilar. Ko'pincha bu holatni ota-onalar to'g'ri tushuna olmaydilar va farzandlaridagi o'zgarishlarni shunchaki

injiqlik va qaysarlik deb qabul qiladilar. Barcha ota-onalar ham o'smirlik davrida bolalarda yuz beradigan psixologik, psixofiziologik o'zgarishlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Shunday vaziyatlarda ota-onalar va farzandlar o'rtasida nizoli vaziyatlar vujudga keladi. Bunday nizoli vaziyatlar o'smirlar va ta'lim muassasasidagi pedagog xodimlar o'rtasida ham kuzatilinadi. Ba'zi ota-onalar bolalarda 3, 6, 13—14 yoshlarda muqarrar ravishda bo'lib o'tadigan krizislarni bilmaydilar. Bu yosh bosqichlarida bola ruhiyatida yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagani ba'zi ota-onalar «bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo'lib qoldi», deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o'zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Bolaning ota-onadan bezish hollari kuzatiladi[2]. Ta'kidlab o'tish joizki o'smirlik davrida bolalarda shakllanadigan ayrim salbiy xususiyatlar bu yosh davriga xos bo'lgan xususiyatlardir. O'smirlarda kechayotgan salbiy xususiyatga ega bo'lgan jarayon vaqtinchalikdir. Bu xususiyat xarakter aksentuatsiyasi deb ataladi. Bu jarayon ustida tadqiqot o'tkazgan olimlar K. Leongard va A. Lichko o'smirlarning 50-80 % ida kuzatilishini ta'kidlab o'tganlar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek bu vaqtinchalik jarayon hisoblanadi. Lekin bu holatni oldi olinmasa, bolaga to'g'ri yo'nalish ko'rsatilmasa va salbiy xususiyatlarni bartaraf etish chora tadbirlari ko'rilmasa bu xususiyatlar bolada odat tusiga aylanib qolishi mumkin. Ba'zan xarakter aksentuatsiyasini shakllanishida oilaviy nizolar, bola o'sib kelayotgan ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Oilaviy munosabatlardagi nizoli vaziyatlar xarakter aksentuatsiyasining kuchayib ketishiga sabab bo'ladi. Oilada nizoli vaziyatning mavjudligi bu holatni yanada kuchaytiradi va o'smirda uydan uzoqlashish, zararli odatlar shakllanishi kuzatilinadi.

Oilada bunday nizoli vaziyatlarni kelib chiqishida quyidagi omillar sabab bo'ladi:

1. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi dunyoqarash o'rtasidagi farq;
2. To'g'ri taqsimlanmagan vaqt, ya'ni o'smirning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkillashtirmaslik;
3. Ota-onalarning spirtli ichimliklar iste'moliga ruju qo'yishi;
4. Bolalarning mehnat ko'nikmalarining o'rgatilmaganligi;
5. Ota-onalarning pedagogik-psixologik ma'lumotlarining kamligi;
6. Ota-onalarning farzand tarbiyasida yo'l qo'yadigan xatoliklari, ularda ota-onalik ma'suliyatini his qilmasliklari kabi omillar aynan muammoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shuni yodda tutish lozimki o'smirlar katta hayotga intilganliklari bilan hali to'laqonli mustaqqil emaslar. Ularda to'laqonli vaziyatga baho berish xususiyati shakllanmagan bo'ladi. Ota-onalardan ular bilan ishlashda yosh xususiyatlarini

inobatga olgan holda tarbiyaviy jarayonlarni to'g'ri tashkillashtirish talab qilinadi. Bu yoshda bolalarda asosiy faoliyat o'qish hisoblanadi. Ularni ma'lum bir to'garaklarga qiziqtirish, fanlarga qiziqtirish orqali yo'naltirish mumkin. O'smirlar ilgari ma'lumotlarni ilgari shunchaki yodlash orqali o'zlashtirigan bo'lsalar endilikda fan predmetlarini mazmunan tahlil qilib, tushunib o'rganish jarayoni boshlanadi. Kasb tanlashga va shu kasbni egallash uchun kerakli fanlarga qiziqish uyg'onadi. Ota-onalar va pedagog xodimlar shuni yodda tutishlari lozimki bolalar ularni qo'llab-quvvatlashlarini xohlashadi. Ularni tanlagan sohalarni qo'llab –quvvatlash, rag'batlantirish orqali shu kasbga yo'naltirish mumkin. Ko'pincha bu yoshda bolalar o'zlarining imkoniyatlarini to'liq inobatga olmagan holda ish tutish kabi holatlarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish albatta ota-onalarning vazifalari hisoblanadi.

Ma'lumki, o'zbek oilalarida farzand tarbiyasiga asosan oilada onalar ma'sul. Farzandlar ko'p vaqtlarini onalari bilan o'tkazadilar. Bolalar kichik yoshidan boshlab dunyoni onasi orqali bilishni va o'rganishni boshlaydi. Bolalarda taffakkur shakllanishida ham onalarning roli katta. Bolalarda nutqiy faoliyatni amalga oshirilishi ham, kommunikativ munosabatlarga kirishishida ham onaning ahamiyati katta. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak bolalarda kichik yoshdan boshlab borliqni idrok qilish ona orqali amalga oshiriladi. Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bolaning kelajagi, uning shaxs sifatida shakllanishi va kamol topishi ko'p jihatdan ko'p jihatdan ota-onalar tomonidan bolada shakllantirilgan tasavvurlarga bog'liq[3].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki o'smir yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida oila va oila a'zolar, ayniqsa ota-onalarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Ular hayot shaxslararo munosabatlarga kirishishlarida ota-onalarning o'zaro va farzandlar bilan bo'lgan munosabatlari muhim omildir. Pedagog va psixolog olimlarning tajribalari natijasi shuni ko'rsatadiki kasb tanlashda ham bolalar o'zlarining ota-onalari faoliyat yuritadigan sohalarni tanlashga moyil bo'lar ekanlar. Oila bolalarda hayot davomida o'rganilishi lozim bo'lgan dastlabki bilimlar beradigan maskan hisoblanadi. Kelajakda har tomonlama yetuk shaxsni voyaga yetkazishda ota-onalar va oilaning katta yoshdagi vakillari ya'ni bobo-buvilar bolaning kichik yoshidan boshlab ularda hayotiy ko'nikmalarning shakllanishiga e'tiborli bo'lishlari va tarbiyadagi kichik elementlarga ham befarq bo'lmasliklari talab qilinadi. O'smirlik davrida oila ta'lim muassasasi bilan aloqa munosabatlarini yo'lga qo'yish kelajakda o'smirda salbiy xususiyatlar paydo bo'lishini oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Z.Abdullayeva, D.Abdullayeva, G.Baykunosova “O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiya” Toshkent-2015, 4b

2. G'.B.Shoumarov va boshqalar.Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2008. 178-b
3. V.Karimova Oila psixologiyasi.Darslik.2007-y. 115-b

